

KULGU AKADEMIYASI SPEKTAKLINING DIYDOR TEATR STUDIYASIDAGI TALQINI VA STENOGRAFIK YECHIM



Mirjalol Xoliqov

teatr bezagi kafedrası o'qituvchisi

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute

E-mail: Da-vinchi9391@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-12>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Diydor teatr-studiyasida yozuvchi Koki Mitani asari asosida rejissyorlar Bobur Yo'ldoshev hamda Ruslan Xaydarov tomonidan sahnalashtirilgan "Kulgu akademiyasi" spektaklining sahnaviy talqini tahlili hamda spektaklning stsenografik yechimi haqida solishtirma tahlillar keltiriladi. Asarning g'oyaviy tuzulishi, bugungi kundagi aktual bo'lgan voqea-hodisalar asarda mavjudligi va asar bosh qahramonlarining ichki kechinmalari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: teatr, ssenografiya, dialog, janr, sayyor, konflikt, dramatik, Diydor, g'oya.

Аннотация: В данной статье представлен анализ сценической интерпретации пьесы «Академия смеха», поставленной режиссёрами Бабуром Йолашевым и Русланом Гейдаровым на основе произведения писателя Коки Митани в театре-студии «Дийдор», а также сравнительные обзоры сценографического решения пьесы. Освещаются идеологическая концепция произведения, наличие в нём событий-феноменов, актуальных в наше время, и внутренние переживания главных героев.

Ключевые слова: театр, сценография, диалог, жанр, странствующий, конфликт, драматический, Дийдор, идея.

Abstract: this article presents an analysis of the stage interpretation of the play "Kulgu Academy", staged by directors Babur Yolashev and Ruslan Heydarov on the basis of the work of writer Koki Mitani at the theater-studio Diydor, as well as comparative reviews about the stsenographic solution of the play. The ideological arrangement of the work, the presence in the work of events-phenomena that are actual today, and the inner experiences of the main characters of the work are illuminated.

Keywords: theater, scenography, dialogue, genre, itinerant, conflict, dramatic, Diydor, idea.

Kulgi akademiyasi" - zamonaviy yapon dramaturgi, ssenariynavis, aktyor va rejissyor Koki Mitani tomonidan yozilgan. Bu asar asosida birinchi spektakl 1996 - yilda Tokioda katta muvaffaqiyat qozondi. Asar syujeti yosh dramaturg Hajimi Tsubaki o'zining yangi "Julio va Romietta" komediya spektaklini sahnalashtirishga ruxsat olish uchun juda qattiqqo'l va konservativ odam bo'lgan senzura Matsuo Sakisakini oldiga boradi. Yaqinda bu lavozimga o'tgan senzura hayotida hech qachon kulmagan va Yaponiyaga nima uchun qiyin urush paytida kulguli spektakl kerakligini tushunmaydi.

Sahnada ikkita qarama-qarshilikka guvohi bo'lamiz: dramaturg va senzura. Dramaturgning maqsadi yozgan komediyasini sahnalashtirish uchun boshliqning roziligini olish; senzuraning maqsadi esa urush bo'layotgan davrda bunday yengil-yelpi asarlarni sahnaga olib chiqmaslik. Chunki vatanda urush bo'lsa-yu qanday kulguli asar haqida gap bo'lishi mumkin? Shuning uchun senzura matndan qat'iyat bilan xato topadi va dramaturg itoatkorlik bilan uni kundan-kunga qayta yozadi. Spektakl davomida sahnada sodir bo'layotgan barcha voqealar kulgili ko'rinadimi? Ehtimol, yo'q, lekin yondashuv haqida gapiriladigan mulohazalar yetarlicha.

"Kulgu akademiyasi" spektaklida urush yillaridagi Yaponiyadagi san'atga bo'lgan senzura, urushning odamlar ongiga, fe'liga, dunyoqarashiga ta'siri haqidagi aslida yig'latadigan haqiqatlar yumor bilan ochib berilgan. "Senzuradan qo'rqib yozilgan pyesa pyesa emas, undan ko'ra urushga ketib, Vatan uchun jon bergan ma'qul!" deydi aktyor ijroda.

Koki Mitani tomonidan yozilgan bu asar Diydor teatr-studiyasi sahnasida sahnalashtirilishining o'zi, teatr-studiya repertuari uchun katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Teatr-studiya ushbu spektakl orqali ko'plab tomoshabinlarni teatr-studiyaga kelishiga undaydi. Asarda ko'rsatib berilgan asosiy g'oya har qanday tomoshabinni mushohadaga undaydi. Asardagi obrazlarni spektakl jarayonida tabiiy ravishda jonlanadi. Spektaklni tomosha qilar ekansiz, beehtiyor obrazlar dunyosiga g'arq bo'lasiz. Bir qo'lini urushda yo'qotgan boshliq va har kuni yangi asar yozib charchamaydigan yozuvchi obrazlari o'rtasidagi konfliktlar va har qanday qiyinchiliklarga chidab bo'lsa ham, o'z asarlarini sahnada qo'yish uchun intilayotgan ijodkor his-tuyg'ulari tomoshabinni bir muddat o'yga tortadi. Negaki, har qanday insonda shunday holatlar bo'lishi mumkin. Bu insonni tanlagan kasbi yoki hurariga qarab belgilanmaydigan hayotiy jarayondur. Ze'ro inson qalbi his-tuyg'ular bilan yashaydi. Spektakl tomoshasiga tashrif buyurgan harqanday tomoshabin albatta, spektakldagi obrazlar holatlarini kulgu va yig'ilarni his etib turadi.

Spektakl stsenografiyasida go'yoki, shu senzurachi harbiy boshliqning kabineti interiyerini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Shuning bilan birga ijodkor o'zi yaratgan yangi asarini qisman boshliqga ko'rsatib berish uchun kichik sahnachani ham ko'rish mumkin. Spektaklning rejissyor traktovkasi stsenografiyada juda ham badiiy yechim talab qilmaganligi sababli, stsenograf voqea makonini ko'rsatishgan e'tiborini qaratgan meni nazarimda. Lekin agar rejissyor rassomga shunday yo'lni ko'rsatgan bo'lsa, bu juda ham to'g'ri yo'l emasligi ma'lum. Negaki, bugungi kunda zamonaviy stsenografiyada har qanday asarni teatr sahnasida sahnalashtirayotganda, spektakl stsenografiyasini rejissyor va stsenograf tomonidan asar saviyasi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar, badiiy ishlangan obraz orqali konseptual stsenografiya ishlab chiqishga harakat qilish lozim. Bu o'z navbatida teatrlar va teatr-studiyalarida stsenografning salohiyatini hamda, teatr-studiyaning ham ijodiy jarayonlarini yuksalishiga sabab bo'ladi.

Spektakl uchun yaratilgan sahna bezaklari, sahna devorlarida interyer uchun mo'ljallangan Yapon ilyustratsiyalari bilan bezatilgan. Bu orqali rassom oddiy ishxona inetryeri bezaklarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Aksincha, stsenografik nuqtaiy nazardan olib qaraganda, bu makonni asar g'oyasini tomoshabinga yetkazishda yordam beradigan badiiy obraz yoki makon bilan tomoshabin ichki dunyosiga ta'sir qiladigan obrazniy yechimlar qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sahnaning ikkinchi tomonida derazalarga parda o'rnida ishlatiladigan jalyuziydan shirma sifatida foydalanilgan. Bu esa aktyorlarning spektakl davomidagi texnik xolatlarini maksimal tarzda tomoshabin nazaridan yashirish uchun katta imkon beradi. Chunki, Diydor teatr-studiyasi sahnasi kamerniy bo'lganligi sababli, har qanday ortiqcha tovush yoki harakat tomoshabinni spektakl holatidan chiqarib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham rejissyor va rassom shunday yechimga kelgan. Spektakl oxrida shu jalyuziy pardalarning qarama-qarshi tomonlariga ishlangan yapon manzara ilyustratsiyalari nomoyon bo'ladi. Spektakl stsenografiyasida sahnaning bir boshida harbiy boshliq kabineti, ikkinchi boshida esa asar yozib spektakllar qilishgan intilayotgan ijodkorning orzusidagi sahnani ko'rishimiz mumkin. Bu esa har bir insonning hayotida, o'z sahnasi borligini va shu sahnada o'zi aktyor o'laroq har soniyada rol ijor etishini bildiradi.

Biz bilamizki Koki Metanining "Kulgu akademiyasi" asari Rossiya davlatining ko'plab teatr va teatr-studiyalarida sahnalashtirilgan va ularda ham stsenografiyada o'ziga hos yechimlar ishlangan. Shulardan biri rejissyor Mixail Shchepenko boshchiligidagi Rus dama teatrida sahnalashtirilgan. Stsenografiyada makonni huddi yer ostidagi bunker sifatida olib uning markazida sahnadan biroz balandlikda joylashtirilgan teatr stanoklari joylashtirilgan. Stanoklarining ustida esa qizil rangdagi harbiy boshliqning ish stoli o'rin olgan. Stsenografiyadagi bu yechim o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, asardagi senzurani san'at ustidan hukmron bo'lib, birinchi planda tomoshabinga namoish etilishidan darak beradi. Asosiy qahramonlardan biri

harbiy boshliq spektakl davomida deyarli shu sahnadan ko'tarilib joylashtirilgan o'rnida pastga tushmaydi. Va shu bilan aktyorlar va stsenografiyaning parallel ravishda ishlashini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni stsenografiya ham spektaklning ajralmas bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Yaponiyalik dramaturg Koki Mitaning "Kulgi akademiyasi" spektaklining syujeti oddiy – baxtsiz dramaturg yangi komediyani asarini sahnalashtirish uchun senzura boshliqdan ruxsat olishga yetti kunlik harakat qilish va yetti kunlik komediya yaratish haqida ajoyib sahna asari hisoblanadi. Senzurach boshliq dramaturgga komediyani xatolardan holi shaklga keltirishi uchun yetti kun muhlat beradi beradi. Dramaturg bu taklifni jon deb qabul qiladi va bo'ysunadi, u asarni qayta ishlashdan charchamaydi va askincha yaxshi ko'radi, masxarabozlik qiladi, hattoki boshliqqa pora beradi, matnni qayta yozadi va sahnalarni absurdlik darajasiga keltiradi. Sujetning bunday kechish ham tomoshabinda o'ziga hos his-tuyg'ularni jumbushga keltiradi. Senzura qanchalik ko'p tahrir qilgan sari, Dramaturgning o'yini shunchalik kulgili bo'lib boraveradi. Oradan yetti kun o'tib, asarni sayqallashga bo'lgan harakatlar yakunlanadi va asl matndan ancha mukammalroq bo'lgan yangi asar tug'iladi. Aslida olganda ichida zerikarli, lekin bolalarcha soddalik bilan senzura amaldor, go'zallik tuyg'usidan mahrum bo'lmagan dramaturg ijodning ta'mi va kuchini tatib ko'rgan holda, asarning hammuallifiga aylanganini o'zi ham sezmay qoladi. Bu ham yozuvchining o'ziga hos usullaridan biri hisoblanadi.

Komediya janrining asosiy talabi asar sodda tarzda tuzilgan bo'lmog'i lozim: agar siz spektaklni tomosha qilsangiz, bu kulgili; agar siz spektaklni ko'rsangiz, u achinarli ekanligini his qilasiz. Va aynan shu usul ta'sir Moskva rus drama teatrida yangi zamonaviy modernizmsiz, sahnasida shakl va g'oya birgalikda hukmron bo'lganligiga erishilgan. Bu pastanovkaning Diydor teatridagi farqlaridan biri shunda.

Spektakl maxsus effektlarsiz, lekin sahnada yorug'lik va rangning mohirlik bilan boshqariladigan o'yini bilan sahnalashtirilgan. Yapon uslubidagi grafik bezaklarning qizil, qora va oq palitrasi, pulsatsiyalanuvchi asab kabi, spektaklning kayfiyati va energiyasiga nozik tarzda ta'sir etadi. To'g'ri bu hususiyat Diydor teatr-studiyasi stsenografiyasida ham bor. Lekin takidlash kerakki, rus drama teatrida sahnalashtirilgan pastanovkada minimalizmga katta ahamiyat qaratilgan. Bu esa bugungi teatr-studiyalari stsenografiyasida urfga kirib borayorgan usullardan biri hisoblanadi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, spektakl sayqallanish jarayonida ketmoqda. Bizni hursand qiladigan tomonlaridan biri aktyorlar hali qolipga tushmagan rassom ham izlanish jarayonida, bu esa teatr-studiyasida ijodiy izlanishlar davom etayotganidan darak beradi. Hozirgi kunda davlat teatrlarida yetishmayotgan jihatlarni aynan siz teatr-studiyalaridan topishingiz mumkin.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avdeyev A.D., Proisxojudeniye teatra, M.— L., 1959;
2. Xorijiy teatr tarixi (ruschadan S. Tursunboyev tarjimasi), t. 1—2, T., 1997, 1999;
3. Rahmonov M., Hamza (o'zbek davlat akademik drama teatri) tarixi, T., 2000;
4. Qodirov M., O'zbek teatri an'analari, T., 1976; O'zbek teatri tarixi, T., 2003.
5. M.Umarov. Mannon Uyg'ur va Milliy teatr estetikasi.
6. M.Umarov. Milliy teatr nazariyasining paydo bo'lishi. "Teatr" 2004